

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilda Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 36 916,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 4,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2022- yil narxlariga nisbatan 108,6 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,5 % ga yetdi.

2023- yilda Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	Mlrd. so'm		O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da
	2022- yil	2023- yil	
I. YAHM, jami	32 541,0	36 916,5	104,4
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	31 473,6	35 999,9	104,3
mahsulotlarga sof soliqlar	1 067,4	916,6	107,9
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	31 473,6	35 999,9	104,3
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	14 347,7	16 252,2	104,0
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 948,8	8 081,7	106,2
sanoat	4 868,6	5 627,5	106,1
qurilish	2 080,2	2 454,2	106,6
xizmatlar	10 177,1	11 666,0	103,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 626,9	1 916,5	105,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 736,2	2 067,2	109,1
boshqa xizmat tarmoqlari	6 814,0	7 682,3	101,5



Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 18 674,9 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 2,5 % ga yuqoridir.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming so'mda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % hisobida)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

	2022- yil	2023- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,7	97,5
mahsulotlarga sof soliqlar	3,3	2,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	45,6	45,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,1	22,4
sanoat	15,5	15,6
qurilish	6,6	6,8
xizmatlar	32,3	32,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5,2	5,3
tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	5,7
boshqa xizmat tarmoqlari	21,6	21,5




2023- yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 45,1 % ni, sanoat tarmog‘i 15,6 % ni, qurilish 6,8 % ni va xizmatlar sohasi 32,5 % ni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2022- yil



2023- yil



● Yalpi qo‘shilgan qiymat


● Mahsulotlarga sof soliqlar



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,8 f.p. (2022- yilda – 1,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 0,9 f.p. (2022- yilda – 1,9 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2022- yilda – 0,1 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,1 f.p. (2022- yilda – 2,2 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.


Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022- yilda – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.

2023- yil uchun YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




2023- yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,0 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 45,1 %), sanoatda – 106,1 % (15,6 %), qurilishda – 106,6 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 103,5 % ni (32,5 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 105,6 % (5,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 109,1 % (5,7 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 101,5 % dan (21,5 %) iborat bo'ldi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda YAHM deflyatori indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 108,6 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlarda – 110,8 % va qurilishda – 110,6 % qayd etildi.

YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)



2023- yilda kichik tadbirkorlik 25 107,3 mlrd. soʻmni tashkil etdi (2022- yilda – 21 987,3 mlrd. soʻm). YAHMdagi ulushi 69,7 % ni (2022- yilda – 69,9 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining oʻtgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.

Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

Hajmi, mlrd.soʻm

Ulushi, % da

2022- yil

21 987,3

69,9 %

2023- yil

25 107,3

69,7 %

